

**EKRANLI QURILMALAR ORQALI  
O‘ZLASHTIRILAYOTGAN TILNING XUSUSIYATLARI**

*Davlatova Hulkaroy Uktamovna*

*Andijon davlat chet tillari instituti*

*Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasida dotsenti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ekranli qurilmalar orqali o‘zlashtirilayotgan tilning xususiyatlari borasida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, ekranli qurilmalar orqali o‘zlashtirilayotgan tilning salbiy ta’sirini aniqlaydigan tadqiqotlar ko‘pincha tilni o‘zlashtirishning interaktiv nuqtai nazariga asoslanadi. Shu boisdan, bolalarning mediya vositalaridan foydalanayotgan vaqti kattalar bilan muloqot qilish va ijtimoiy almashinuv imkoniyatlarini kamaytirishligi aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** ekran, muloqot, bola, til, psixologik, texnologik, lingvistik, nutq, yozuv,

**KIRISH.** Hozirgi vaqtda zamonaviy tilshunoslikda olimlar e’tiborini ekranli qurilmalar orqali o‘zlashtirilayotgan til tushunchasi tortmoqdaki, bu jarayon ko‘p qirrali va murakkab hodisalardan biridir. Bu jarayonlarga ikki hil tarafdin yondashilyapti, dastlab, texnologik muhitda nutq, yozuv va tinglash ko‘nikmalarining rivojlanishi, keyin esa tilning lingvistik, psixologik hamda didaktik jihatlari bilan chambarchas bog‘liq jarayon hisoblanadi. Shu bilan birga, til o‘zlashtirishning bu usuli tilni hususiyatlarini oshirish bilan birga, ayrim muammolarni ham yuzaga keltirishi tabiiy hol albatta. Mazkur kichik ilmiy tadqiqotimizning ushbu qismida ekranli qurilmalar orqali o‘zlashtirilayotgan tilning xususiyatlari borasida fikr yuritimiz.

Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez rivojlanishi turli sohalarda tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. XXI asrda birinchi o‘n yiligidin tug‘ilgan bolalar raqamli dunyoda ulg‘aymoqdalar.

Ekranli qurilmalardan foydalanish bola nutqining o'zlashtirishiga va rivojlanishiga ta'siri masalasi tilshunos olimlar o'rtasida keng muhokama sabab bo'lmoqda. Ayniqsa til o'zlashtirilishi va rivojlanishi ushbu bahslarning markazida turadi. Chunki bolaning nutqi avvalo oilada shakllanadi, jamiyatda rivojlanish bosqichiga o'tadi.

Tadqiqotlarchilar D. Anderson va H. Kirkorianlar<sup>1</sup>, bolalar va ekranli media vositalarining o'zaro munosabatlari hamda ular kognitiv rivojlanishga qanday ta'sir qilishi borasidagi keng qamrovli tadqiqotlar olib borganlar. Natijada kichik yoshdagi bolalarning raqamli qurilmalar oldida o'tkazgan vaqtini, ularning til ko'nikmalari bilan salbiy bog'liqligini aniqlaganlar. Keyingi tadqiqotlar bolalarning ekranga bog'liqligi va til rivojlanish o'rtasidagi munosabatni tahlil qilishda kontentning sifati, bolalar smartfonlardan o'tonalari bilan birgalikdagi foydalanishi va ijtimoiy-interaktiv muhit kabi omillar muhim rol o'ynashi borasida izlanishlar olib borilgan<sup>2</sup>. Ko'rsatilgan tadqiqotlarda bolalarning til rivojlanishiga ekrandan foydalanishning ijobiy yoki, salbiy ta'sirlarini tushuntiruvchi omillar tadqiq etilgan.

**ASOSIY QISM.** Ekranli qurilmalar orqali o'zlashtirilayotgan tilning salbiy ta'sirini aniqlaydigan tadqiqotlar ko'pincha tilni o'zlashtirishning interaktiv nuqtai nazariga asoslanadi<sup>3</sup>. Shu boisdan, bolalarning mediya vositalaridan foydalanayotgan vaqti kattalar bilan muloqot qilish va ijtimoiy almashinuv imkoniyatlarini kamaytiradi. Televizor, planshet, kompyuter va telefonlar bolalarning kognitiv rivojlanishiga ta'sir qilishi jarayoni borasida sistematik ko'rib chiqish amalga oshirilgan tadqiqotchilar D. R Anderson va H. L Hansonlarning fikriga ko'ra<sup>4</sup>, ekran vaqtining o'zi emas balki kontent sifati,

<sup>1</sup> Anderson, D. R., & Kirkorian, H. L. Media and young children's learning. In M. Bornstein, T. Leventhal, & R. Lerner (Eds.), Handbook of Child Psychology and Developmental Science (7th ed., Vol. 4, 2015. – Pp. 1–45). Wiley.

<sup>2</sup> [https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8905397/?utm\\_source](https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8905397/?utm_source) [Murojaat sana: 04.09.2025]

<sup>3</sup> Bruner, J. Child's Talk: Learning to Use Language. Oxford: Oxford University Press.1985. – P. 36

<sup>4</sup> Anderson, D. R., & Kirkorian, H. L. Media and young children's learning. In M. Bornstein, T. Leventhal, & R. Lerner (Eds.), Handbook of Child Psychology and Developmental Science (7th ed., Vol. 4, 2015. – Pp. 1–45). Wiley.

ota–bola bilan birga foydalanish va media turining interaktivligi eng muhim omillardir. Ikki yarim yoshda televizor tomosha qilish uchun sarflangan har bir qo‘shimcha soat besh yoshda lug‘atning 11 foizga kamayishi bilan bog‘liqligini izlanuvchilar L.S. Pagani va hamkasblari<sup>5</sup> tomonidan aniqlangan.

Eng so‘nggi ekranli qurilmalar orqali o‘zlashtirilayotgan tilning xususiyatlari borasidagi tadqiqotlar, mediya dan foydalanishning til rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha olib borilgan izlanishlar natijasi salbiy emas balki ba’zan ijobiy ta’sirlarni ko‘rsatmoqda. Ekran oldida bolalarning ko‘p vaqt sarflashi **ularning** so‘z boyligi, ifodali nutqi va umumiy til ko‘nikmalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishligini Madigan boshchiligidagi bir guruh tadqiqotchilar 42 ta tadqiqot asosida (jami 367,000 dan ortiq ishtirokchi qatnashgan) til ko‘nikmalari bilan ekran oldidagi vaqt orasida salbiy bog‘liqlikni aniqlaganlar<sup>6</sup>. 2023 yilda tadqiqotchi Jing rahbarligidagi izlanishlarda, 63 nafar bolalarda sinov o‘tkazilib ekrandan foydalanish va so‘z boyligi o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikni aniqlaganlar.

**Xulosa.** Yuqorida bir nechta olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning turlicha natijalaridan asoslanib aytishimiz mumkinki, bolalning ekran oldida o‘tgan vaqt emas, balki ularning ekran bilan nutqiy muloqotining turli xususiyatlari ham tadqiq etilishi kerak. Ekranli qurilmalar orqali o‘zlashtirilayotgan tilning eng muhim xususiyatlari, bolalar ekranda qanday kontent ko‘rishi va uni nutqiy muloqotida qo‘llay olishidir. Keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’limiy kontent ya’ni bolaning o‘rganishini rag‘batlantirish maqsadida yaratilgan materiallar til ko‘nikmalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi<sup>7</sup>.

<sup>5</sup> Pagani, L. S., Fitzpatrick, C., Barnett, T. A., & Dubow, E. Prospective associations between early childhood television exposure and academic, psychosocial, and physical well– being by middle childhood. *Archives of Pediatrics & Adolescent Medicine*, 167(9), 2013. – Pp. 816–822.

<https://doi.org/10.1001/jamapediatrics.2013.122> [Murojaat sanasi: 03.04.2026]

<sup>6</sup> Madigan, S., McArthur, B. A., Anhorn, C., Eirich, R., & Christakis, D. A. Associations between screen use and child language skills: A systematic review and meta– analysis. *JAMA Pediatrics*, 174(7), 2020. – Pp. 665–675. <https://doi.org/10.1001/jamapediatrics.2020.0327> [Murojaat sanasi: 03.04.2026]

<sup>7</sup> Jing, M. Vocabulary learning and development: A meta–analysis. *Child Development*. To‘liq maqola Wiley platformasida mavjud: 2023.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Anderson, D. R., & Kirkorian, H. L. Media and young children’s learning. In M. Bornstein, T. Leventhal, & R. Lerner (Eds.), *Handbook of Child Psychology and Developmental Science* (7th ed., Vol. 4, 2015. – Pp. 1–45). Wiley.
2. Bruner, J. *Child’s Talk: Learning to Use Language*. Oxford: Oxford University Press.1985. – P. 36
3. Pagani, L. S., Fitzpatrick, C., Barnett, T. A., & Dubow, E. Prospective associations between early childhood television exposure and academic, psychosocial, and physical well– being by middle childhood. *Archives of Pediatrics & Adolescent Medicine*, 167(9), 2013. – Pp. 816–822.
4. Madigan, S., McArthur, B. A., Anhorn, C., Eirich, R., & Christakis, D. A. Associations between screen use and child language skills: A systematic review and meta– analysis. *JAMA Pediatrics*, 174(7), 2020. – Pp. 665–675. <https://doi.org/10.1001/jamapediatrics.2020.0327> [Murojaat sanasi: 03.04.2026]
5. Jing, M. Vocabulary learning and development: A meta–analysis. *Child Development*.  
To’liq maqola Wiley platformasida mavjud: 2023.
6. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.1111/cdev.13927>[Murojaat sanasi: 03.04.2026]
7. [https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8905397/?utm\\_source](https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8905397/?utm_source) [Murojaat sana: 04.09.2025]
8. <https://doi.org/10.1001/jamapediatrics.2013.122> [Murojaat sanasi: 03.04.2026]

---

<https://onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.1111/cdev.13927> [Murojaat sanasi: 03.04.2026]

